



ДУХОВНОЕ СОБРАНИЕ
МУСУЛЬМАН РОССИИ

**РОСМИГРАНТ – mehnat migrantlarini to'liq
moslashtirish va integratsiyalash markazi**

MOLIYA MASALALARI

www.росмигрант.рф

www.rosmigrant.ru

Ishonch telefoni

8 800 550 32 03

RFda Qozog'iston, Qirg'iziston, O'zbekiston va Tojikiston fuqarolari uchun

RFdan pul mablag'larini boshqa tomonga jo'natish va aksincha

Chet elga boshqa jismoniy shaxsga pul mablag'larini jo'natish Siz quyidagi usullardan foydalanishingiz mumkin:

Bank o'tkazmasi

Rosiiyaning deyarli barcha banklari xorijiy hisob varaqalariga mablag'larni o'tkazish xizmatlarini amalga oshiradi, shunisi ma'lumki, eng yirik moliya kompaniyalari bundan tashqari boshqa davlatlarda o'z filiallariga ega. Bunday pul o'tkazish uchun komissiya 0,5% dan 5%gacha o'tkazilayotgan mablag'ga ko'ra farqlanadi, shunga qaramasdan, aniq ma'lumot olish uchun moliya tashkilotiga borish zarur. Pulning borib tushishi 5 ish kunigacha muddatdan iborat bo'ladi. Internet-bank ulangan bo'lsa, jarayon ancha osonlashadi.

Elektron to'lov tizimi yordamida

Virtual pul hamyonlarining afzalligi shundaki, istalgan joydan o'tkazish imkoniyati mavjud: pulni uydan chiqmasdan jo'natish mumkin. O'z hisobida o'tkazish uchun zarur bo'lgan pul miqdorining bo'lishi yetarli, shuningdek, qabul qiluvchining rekvizitlarini bilish zarur. To'lov tizimining tranzaksiya jarayonida 10 daqiqagacha bo'lgan vaqt sarflanadi va xizmatlar uchun to'lovlarni o'z ichiga oladi. Bunday pul o'tkazmasi uchun jo'natilayotgan pul mablag'ining miqdoriga ko'ra 0,8% dan 10%gacha komissiya to'lanadi, uni pul jo'natuvchi to'laydi. Bunda qabul qiluvchi ham, jo'natuvchi ham to'lovlarni bajaradi;

Xalqaro pul o'tkazmalari tizimi yordamida

Xizmat ko'rsatishning asosiy punktlari dunyoning ko'plab mamalakatlarida joylashgan, shuning uchun odatda o'tkazmalarni olish bilan bogliq qiyinchiliklar yuzaga kelmaydi. Mablag'ni jo'natish uchun uni qabul qiluvchining ismi va yas-

hash joyini xodimga aytiladi, pasport ko'rsatiladi va komissiya to'lanadi. Pul o'tkazmasi uchun komissiya 0- 20%ni tashkil qiladi. Pul o'tkazilgandan so'ng, nazorat raqami beriladi – uni oluvchiga xabar beriladi. Aynan shu raqamlar chet el bo'limlarida pulni olishga yordam beradi. Ba'zi kompaniyalar o'z mijozlariga rasmiy sayt orqali chet elga pul jo'natishni taklif qiladilar.

Kreditlash

Ko'plab banklarda chet el fuqarolariga kreditni istamay beradilar–kreditorlar uchun (masalan-banklar) bu juda yuqori xavf. Kredit olish uchun chet el fuqarosi bankka murojaat etishi va quyidagi talablarga javob berishi zarur;

Fuqaro yuqori haq to'lanadigan ishga rasman ega bo'lishi kerak. Muhimi, uning daraomadi 2-НДФЛ ma'lumotnomasi bilan tasdiqlangan bo'lishi zarur;

•RFhududida ko'chmas mulki yoki avtomobili bo'lishi kerak.

•fuqaro jismoniy shaxs sifatida soliq to'lovchi maqomiga ega bo'lishi kerak.

Ta'minlangan kreditlar uni olish uchun yuqori imkoniyat beradi – buni ko'chmas mulk yoki avtomobil kafolatlaydi. Agar mijozning kafolat beruvchi ko'chmas mulki bo'lmasa, kafillikka o'tuvchini jalb qilishi mumkin u esa mulkni garovga qo'yishi zarur, u to'lash qobiliyatiga ega bo'lgan RF fuqarosini yoki yuridik shaxsni jalb etishi mumkin. Ta'kidlash joizki, RFda 180 kundan ko'proq uzluksiz ravishda bo'lgan chet el fuqarolari katta ishonchga ega bo'ladilar. Kredit olish uchun ariza berayotganda shuni hisobga olish zarurki, kreditlash davri Rossiyada ro'yxatdan o'tish muddati bilan chegaralanadi. Ba'zi hollarda banklar ro'yxatdan o'tganlikning tugashiga uch oy qolgunga qadar oxirgi to'lovlarni amalga oshirish majburiyatni yuklaydilar.

Hisob raqamni ochish va bank kartasini rasmiylashtirish

Hozirgi vaqtda ko'plab banklarda hisob raqamini ochish yoki debet plastik kartasini rasmiylashtirish qiyin emas.

Rasmiylashtirish uchun quyidagi hujjatlar talab qilinadi:

- chet el fuqarosining pasporti yoki federal qonun tomonidan o'rnatilgan yoki xalqaro shartnomaga muvofiq tan olinadigan shaxsni tasdiqlovchi boshqa hujjat;
- Rossiya Federatsiyasida bo'lish huquqini tasdiqlovchi migratsiya kartasi va hujjat ;
- hujjatlarning rus tiliga tarjimasi notarius tomonidan tasdiqlangan bo'lishi;
- soliq organida ro'yxatda turganligini tasdiqlovchi guvohnoma (bor bo'lsa);
- amaldagi mehnat shartnomasi va RFda ishlashga rasmiy ruxsatnoma (bor bo'lsa).

Xorijiy fuqaroning yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxsning Rossiya Federatsiyasida bo'lish (yashash) yashash huquqini tasdiqlovchi hujjatlar quyidagilar hisoblanadi:

- yashah uchun ruxsatnoma;
- vaqtinchalik yashash uchun ruxsatnoma;
- viza;
- boshqa hujjatlar.

Omonatlar

Chet el fuqarosi istalgan bankda omonat hisobini (hisob raqami kabi) ochishi mumkin.

Rossiya Federatsiyasida vaqtinchalik bo'lib turgan chet el fuqarosiga depozit ochish uchun zarur bo'ladigan hujjatlar:

- chet el fuqarosining pasporti yoki federal qonun tomonidan o'rnatilgan yoki xalqaro shartnomaga muvofiq tan olinadigan shaxsni tasdiqlovchi boshqa hujjat;
- migratsiya kartasi (Belorusiya fuqarolari va yashashga

ruxsatnomasi bo'lgan fuqarolar bundan istisno);

- chet el fuqarosining Rossiya Federatsiyasida bo'lish (yashash) huquqini tasdiqlovchi hujjatlardan biri: vaqtinchalik yashash uchun ruxsat yoki amaldagi viza (agar bor bo'lsa).

Bu hujjatlar qoidaga rioya qiladigan har bir chet el fuqarosining qo'l ostida har doim bo'lishi kerak. Bundan tashqari, bu deyarli rossiyalik omonatchilar o'tadigan jarayon kabi unga o'xshash bo'ladi.

RF hududida doimiy yashab turgan chet el fuqarosiga depozit ochish uchun zarur bo'ladigan hujjatlar:

- chet davlat tomonidan berilgan chet el fuqarosining pasporti yoki xalqaro shartnomaga muvofiq Rossiya Federatsiyasida tan olinadigan shaxsni tasdiqlovchi boshqa hujjat;
- Rossiya Federatsiyasida yashash uchun ruxsatnoma.

Bunda chet ellik fuqarolarning omonatlari Rossiya fuqarolarining depozitlari bilan teng ravishda 700 ming rubl miqdorida sug'urtalangan yoki chet valyutasining ekvivalenti RF Markaziy bankining kursi bo'yicha amalga oshiriladi. Shunga qaramasdan, oxirida chet ellikdan soliq ushlana-di: daromadning 30% miqdorida, ya'ni shartnomaga ko'ra, shartnoma bo'yicha hisoblangan foizlar (shuningdek, Rossiya Federatsiyasi hududida olingan har qanday boshqa daromadlardan).

Pulni qayerda Rossiya rubliga almashtirish mumkin?

Biz pul almashtirishni banklarda amalga oshirishni tavsiya etamiz. Bu usulning ustun tomoni shundaki, — valyuta kurslarini bankda solishtirish mumkin. Shunday saytlar borki, turli banklarda valyutaning qiymati haqida ma'lumotlarni to'playdi, shuning uchun Siz qiyalmasdan bugungi kunda qayerda sotib olish foydaliroq ekanini aniqlay olasiz. Bankda pul almashtirish xavfsiz, lekin har doim ham tez bajarib bo'lmaydi, u yerda doim navbatga turiladi.

Moliya masalasi
RFda Qozog'iston, Qirg'iziston, O'zbekistonTojikiston-
fuqarolari uchun

Men RFdan yoki RFga qanday qilib pul o'tkazishim
mumkin?

Siz pulni bankdan ko'chirish orqali elektron to'lov tizimi yordamida, xalqaro pul-mablag'lari o'tkazish tizimi yordamida o'tkazishingiz mumkin.

Men bankda pul o'tkazmasi uchun qanday komissiyani
to'lashim kerak?

Komissiya pul o'tkazmasi miqdoriga bog'liq va 0.5% dan 5% gacha foizni tashkil qiladi, aniqroq ma'lumotni esa bankda olishingiz mumkin.

Qancha vaqtdan so'ng pul hisobga tushadi?

Pulning hisobga borib tushishi odatda 5 ish kunigacha bo'lgan muddatdan iborat.

Internet – bank nima?

Internet-bank –bu bankdagi masofali xizmat ko'rastish tizimi bo'lib, moliyaviy operatsiyalarni kompyuter yoki telefondagi ilovalar orqali bankka bormasdan amalga oshirish imkonini beradi.

Elektron hamyondan qanday foydalanish mumkin?

Elektron hamyonni olish uchun Siz saytda yoki virtual to'lov tizimining ilovasida ro'yxatdan o'tishingiz kerak (masalan, Yandex, Dengi, Kivi va boshqalar) va uning hisobiga pul qo'yishingiz zarur. Shundan so'ng Siz pul-mablag'larni o'tkazish bo'yicha operatsiyalarni bajarishingiz mumkin, buning uchun qabul qiluvchining rekvizitlarini bilish kerak bo'ladi.

Elektron hamyon orqali o'tkazishda men qanday
komissiya to'lashim kerak?

Elektron to'lov tizimi orqali pul o'tkazishda komissiya pul miqdoriga qarab, 0.8 dan 10% gacha bo'ladi. Xizmatlar uchun yig'implarni pul jo'natuvchi ham, pulni qabul qiluvchi

ham to'laydi.

Xalqaro pul o'tkazmalari tizimi orqali qanday qilib pul
jo'natish mumkin?

Siz xizmat ko'rsatish punktlariga murojaat etishingiz zarur va xodimga qabul qiluvchining ismi, yashash manzilini aytishingiz va pasportingizni ko'rsatib, komissiyani to'lashingiz zarur. Pul-mablag'larni jo'natganingizdan so'ng Sizga nazorat raqamini beriladi, uni qabul qiluvchiga bildirishingiz zarur bo'ladi.

Pul-mablag'lar o'tkazishning xalqaro tizimi orqali pul
o'tkazishda men qanday komissiya to'lashim kerak?

Pul o'tkazish uchun komissiya turli tizimlarda Odan 20% gacha bo'ladi.

Men RFda kredit olishim mumkinmi?

Kredit olish uchun ariza berishda Sizda quyidagilar bo'lishi kerak:

•Yuqori haq to'lanadigan ishga rasman ega bo'lish.
Daromadning 2-ҲДФЛ ma'lumotnomasi bilan tasdiqlangan bo'lishi;

•Rf hududida ko'chmas mulk yoki avtomobilga ega bo'lish;

•Jismoniy shaxs sifatida soliq to'lovchi maqomiga ega bo'lish.

Ta'minlangan kreditlar uni olish uchun yuqori imkoniyat beradi – ko'chmas mulk yoki avtomobil kafolatlaydi. Agar mijozning kafolat beruvchi ko'chmas mulki bo'lmasa, kafillikka o'tuvchini jalb qilishi mumkin, u esa mulkni garovga qo'yishi zarur, u to'lash qobiliyatiga ega bo'lgan RF fuqarosini yoki yuridik shaxsni jalb etishi mumkin. Ta'kidlash joizki, RFda 180 kundan ko'proq uzluksiz ravishda bo'lgan chet el fuqarolari katta ichonchga ega bo'ladilar.

Menga kreditni qanday muddatga berishlari mumkin?

Kreditlash davri Rossiyada ro'yxatdan o'tish mudda-

ti bilan chegaralanadi. Ba'zi hollarda banklar ro'yxatdan o'tganlikning tugashiga uch oy qolgunga qadar oxirgi to'lovlarni amalga oshirish majburiyatni yuklaydilar.

Men bankda qanday qilib hisob ochishim va bank kartasini rasmiylashtirishim mumkin?

Buning uchun Sizga quyidagi hujjatlar zarur bo'ladi:

- Pasport yoki shaxsini tasdiqlovchi hujjat;
- migratsiya kartasi va chet el fuqarosining Rossiya Federatsiyasida bo'lish /yashash huquqini tasdiqlovchi hujjat. (Yashash uchun ruxsatnoma, vaqtinchalik yashash uchun ruxsatnoma, viza);
- Barcha hujjatlar rus tiliga tarjima qilinib, notariusda tasdiqlangan bo'lishi kerak;
- Soliq organida ro'yxatdan o'tganligi haqida guvohnomasi (agar bor bo'lsa);
- Amaldagi mehnat shartnomasi va RFda ishlash uchun rasmiy ruxsatnoma (agar bor bo'lsa).

Men bankda omonat qo'yishim mumkinmi?

Siz RF hududida vaqtinchalik yashaysizmi yoki doimiy? Vaqtinchalik.

Siz istalgan bank bo'limiga murojaat etishingiz mumkin va quyidagi hujjatlarni taqdim etishingiz mumkin:

- Pasport yoki shaxsini tasdiqlovchi boshqa hujjat;
- Migratsiya kartasi (agar yashashga ruxsatnoma bo'lmasa);
- Sizga RFda bo'lish / yashash huquqini berishni tasdiqlovchi hujjat (agar bor bo'lsa).

Doimiy.

Siz istalgan bank bo'limiga murojaat etishingiz mumkin va Quyidagi hujjatlarni taqdim etishingiz mumkin:

- Pasport yoki shaxsini tasdiqlovchi boshqa hujjat;
- RFhududida yashga ruxsatnoma.

Omonat bo'yicha soliq to'lashim kerakmi?

Shartnoma bo'yicha o'tkazilgan mablag'dan 30% mi-

qdorida soliq ushlanadi.

Men qanday qilib pulni rus rubliga almashtirishim mumkin?

Bankda pul almashtirish xavfsiz va ishonchliroq - valyuta kurslarini turli banklarda maxsus saytlarda taqqoslash mumkin, masalan, banki.ru, sravni.ru va boshqalar.

Chet el fuqarosi xususiy korxonaga ochishi mumkinmi?

Men – boshqa davlatning fuqarosiman. Men Rossiyada xususiy tadbirkor (keyin XT) bo'lishim mumkinmi?

- Layoqatli (layoqatlilik–18yoshdan, 16yoshdan–tur-mush qurishda yoki mehnat shartnomasi bo'yicha ish-lashda) yoki layoqati cheklanganlar;
- Rossiya hududida doimiy yashaysizmi (Vaqtinchalik ya-shash yoki yashashga ruxsatnoma bormi)?

Ha.

Siz RF hududida tadbirkorlik bilan shug'ullanishingiz mumkin.

Cheklangan qobiliyatli kishilar uchun ishonchli shaxs bo'lishi kerak.

Yo'q.

RFqonunchiligiga muvofiq, bu shartlar chet el fuqarolari tomonidan xususiy tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun majburiy hisoblanadi.

XTni ochish uchun qanday hujjatlar kerak?

XTni ro'yxatdan o'tkazish uchun Siz Federal soliq xizma-ti bo'limiga quyidagi hujjatlarning asli va nusxalarini taqdim etishingiz kerak:

- Ro'yxatdan o'tish haqida ariza;
- Shaxsini tasdiqlovchi hujjat;
- Tug'ilganlik guvohnomasi (agar shaxsini tasdiqlovchi hujjatda tug'ilgan sana ko'rsatilmagan bo'lsa);
- Yashah uchun ruxsatnoma (keyin VNJ) yoki vaqtinchalik yashash uchun ruxsatnoma(RVP);

- RF subyektida yashash manzilini tasdiqlovchi hujjat;
- Sudlanmaganligi haqida ma'lumotnoma (18 yoshgacha bo'lgan shaxslar bilan ishlash uchun);
- Soliqqa tortish rejimini tanlash bo'yicha ariza;
- Boj to'langanligi haqida kvitansiya (800rubl);
- Ichonchnoma, agar rasmiylashtirish bilan boshqa kishi shug'ullanayotgan bo'lsa.

Hujjatlarni Davlat xizmatlari portali orqali elektron ko'rinishda topshirish mumkin. Bunda davlat boji to'lanmaydi, lekin arizani kuchli elektron imzo bilan tasdiqlanadi va Davlat xizmatlari sayti orqali va va notarius yoki MΦU yordamida topshiriladi.

Arizani qanday qilib to'g'ri to'ldirish kerak?

Arizani to'ldirish uchun talablar quyidagicha:

- Arizaning barcha varaqlarini qog'ozda chiqarish kerak, ikki tomondan muhr bosish taqiqlanadi, to'ldirilmagan sahifa biriktirilmaydi.

Qora rangli ruchka bilan, bosma harflar bilan yoziladi, har bir harf alohida chiziqlar ichida yoziladi.

- Arizani to'ldirishda Microsoft Word yozuvidan foydalanish zarur, shrift Courier New, 18 o'lchamida bo'lishi zarur;
- Yozilganni to'g'rilash mumkin emas;
- Soz'larni ko'chirish va qisqartirish rus tili qoidalariga ko'ra bajarilishi kerak, shuningdek, vaqt formatiga ham rioya qilinishi kerak;
- Sahifalarni raqamlash kerak.

XTni ro'yxatdan o'tkazish jarayoni qancha vaqt davom etadi?

Soliq inspeksiyasiga hujjatlarni topshirigandan so'ng Sizni uch ish kuni ichida ro'yxatdan o'tkazishlari kerak.

XTni ro'yxatdan o'tkazish qiymati qancha?

Qiymat bir necha omillarga bog'liq bo'lishi mumkin. Boj miqdori 800 rubldan iborat (agar ariza elektron ko'rinishda topshirilgan bo'lsa, to'lanmaydi). Notarius va tarjimon

xizmatlari, shuningdek, huquqiy yordam alohida to'lanadi.

Men soliq rejimini tanlashim mumkinmi?

Ha, Siz o'zingiz uchun qulay bo'lgan soliq rejimini tanlashingiz mumkin va tanlagan rejim haqida arizani ro'yxatdan o'tish arizasi bilan birga topshirishingiz mumkin (yoki topshirilgandan so'ng 30 kundan kech bo'lmagan muddatda) Bu quyidagilar bo'lishi mumkin:

- Soliq to'lashning sodda tizimi (kam soliq to'lanishini nazarda tutiladi, turli hududlarda to'lovlar turlicha);
- Daromad solig'i bo'yicha yagona soliq turi (EHBД, bu barcha hududlarda amalga oshirilmaydi);
- Patent tizimi (ПЧН, barcha hududlarda amalga oshirilmaydi);
- Yagona qishloq xo'jaligi solig'i (ECXH, faqat qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar uchun).

Agar men soliqqa tortilishning rejimini tanlash bo'yicha ariza berishga ulgurmagani bo'lsam, nima bo'ladi?

Bunday holatda soliq xizmati avtomatik tarzda Sizning XT uchun soliq to'lashning umumiy rejimini qo'llaydi va Siz bunday holatda HДC va HДФЛ to'lay boshlaysiz.

Menga XTni ro'yxatdan o'tkazishimga ruxsat bermasliklari mumkinmi?

Quyidagi sabablarga ko'ra ruxsat bermasliklari mumkin:

- Barcha hujjatlar taqdim etilmaganda;
- Hujjatlar mutasaddi bo'lmagan ro'yxatdan o'tkazuvchi organga jo'natilgan bo'lsa;
- Hujjatlar notarial tasdiqlanmagan bo'lsa;
- Kamida 12 oy oldin bankrot bo'lgan bo'lsangiz;
- Xususiy tadbirkorlik bilan shug'ullanishingiz sud tomonidan taqiqlab qo'yilganligi muddati tugamagan bo'lsa;
- Ta'lim, tarbiya va 18 yoshgacha bo'lgan shaxslarning dam olishlarini tashkil qilish bilan bog'liq bo'lgan xususiy tadbirkorlik hech qachon og'ir va o'ta og'ir jinoyat uchun sudlanmagan shaxslar tomonidan ochiladi;

- Agar XT uchun taqiqlangan faoliyat ko'rinishi tanlangan bo'lsa, (harbiy texnikani, dori ishlab chiqarish va boshqalar);
- RVP yoki VNJ muddati tugagan bo'lsa.
- Ruxsat berilmaganligi haqida yozma ravishdagi qaror hujjat topshirilgandan so'ng 5 ish kuni ichida beriladi.

Chet ellik qanday qilib kvartira/uy sotib olishi mumkin?

Men –boshqa davlatning fuqarosiman. Men RF hududida kvartira/uy sotib olishim mumkinmi?

Qonunchilik chet ellik fuqarolarga quyidagilardan tashqari holatlarda ko'chmas mulk sotib olishga ruxsat beradi:

- RFning chegara hududlarida;
- Yopiq ma'muriy-hududiy tuzilmalarda.

Siz mamlakat hududida qolish huquqini tasdiqlashingiz kerak (viza, migratsiya kartasi, yashash uchun ruxsatnoma, vaqtinchalik yashash uchun ruxsatnoma).

Kvartira/uy sotib olish uchun Yashash uchun ruxsatnoma (keyin VNJ) bo'lishi shartmi?

Yo'q, majburiy shart emas. VNJ Sizing mamlakatda yashash huquqingizni tasdiqlaydi, ko'chmas mulk esa doimiy yashash uchun emas, balki mavsumiy yashash uchun sotib olingan bo'lishi mumkin.

RFda kvartira/uy sotib olish uchun men o'z fuqarolimdan voz kechishim kerakmi?

Yo'q, RF qonunchiligida bunday talablar mavjud emas.

Bitimni rasmiylashtirishim uchun menga qanday hujjatlar kerak?

Bitimni tuzish uchun Sizdan quyidagilar talab qilinadi:

- milliy passport va uning tarjima qilinib, notariusda tasdiqlangan nusxasi;
- Rossiyada bo'lishning qonuniyligini tasdiqlovchi hujjatlar (viza, migratsiya kartasi, VNJ, RVP).

Agar bitim notarial guvohnomani yoki davlat ro'yxatidan o'tkazishni talab qilsa, unda turmush o'rtog'ingizning roziligini notariusda tasdiqlangan holatda taqdim etishingiz zarur. Agar

turmush o'rtog'ingiz chet elda bo'lsa, rozilik xatining ikkinchi tomoniga istalgan notariusda bu hujjatga apostil qo'ydirish-ingiz, va shuningdek, u rus tiliga tarjima qilingan bo'lishi kerak.

Siz rus tilini yaxshi bilasizmi?

Ha.

Barcha hujjatlar rus tilida tuziladi, shartnomaga imzo qo'yishdan oldin hujjatlarni diqqat bilan o'rganing.

Yo'q.

Siz qilishingiz mumkin:

- Hujjatlarni tayyorlash uchun tarjimonni jalb etish;
- Siz notariusga murojaat etishingiz mumkin, u Sizingni tarjimon bilan ta'minlaydi va ikki tilda notarial tasdiqlangan hujjatni tuzishda yordam beradi;
- Bitimni ishonchli shaxs orqali tuzishingiz mumkin.

Kvartira/uy sotib olgandan so'ng VNJ / fuqarolikni olishim mumkinmi?

Faqat umumiy asoslarda. Ko'chmas mulkni sotib olish bu masalada hech qanday imtiyozlarni bermaydi.

Kvartira/uy sotib olishda bitim men uchun RF fuqarolaridan ko'ra qimmat bo'ladimi?

Yo'q, RF qonunchiligi chet ellik fuqaro sifatida Siz uchun qo'shimcha badallar va to'lovlarni talab qilmaydi. Hujjatlarni rus tiliga tarjima qilish va ularni notarial tasdiqlash, tarjimon xizmatlarini to'lash va boshqalar qiymatni oshirishi mumkin.

Chet ellik mashinani qanday sotib olishi mumkin.

Men –boshqa davlatning fuqarosiman. RFda men avtomobilni o'zimga rasmiylashtirishim mumkinmi?

Sizda bor bo'lsa :

- Ishga patent;
- Vaqtinchalik yashash uchun ruxsatnoma (keyin RVP) yoki yashash uchun ruxsatnoma (keyin VNJ).

Yoki

- Siz shartnoma bo'yicha ishlayotgan Armaniston, Be-

lorus, Qozog'iston, Qirg'iziston fuqarosi hisoblanasizmi?

Ha.

Ha, Siz RFda transportni o'zingizga rasmiylashtirishingiz mumkin.

Yo'q.

RFda transport vositasini o'zingizga rasmiylashtirish uchun quyidagi shartlardan biriga mos kelishingiz zarur.

Avtomobilni hisobga olish / ro'yxatdan o'tkazish / mening nomimga rasmiylashtirish uchun qayerga murojaat etishim kerak?

Siz o'zingiz yashaydigan va ro'yxatdan o'tgan joyda ГИБДД hududiy yoki rayon bo'limiga murojaat etishingiz zarur.

Siz quyidagi hujjatlarni taqdim etishingiz zarur:

- Avtomobilni rasmiylashtirish / qayta rasmiylashtirish uchun ariza (ГИБДД bo'limida ariza namunasini beriladi);
- ushbu mashinaga texpasport;
- Oldi-sotdi haqida shartnoma;
- transport vositasini xaridorga ropshirganlik akti bo'yicha komissiya shartnomasi;
- shaxsini tasdiqlovchi hujjat (Sizning fuqarolik pasportingiz);
- sug'urta polisi (ОСАГО);
- migratsiya kartasi;
- patent /RVP/VNJ.

Avtomobilni sotib olgandan so'ng necha kun ichida uni rasmiylashtirishim kerak?

Bu avtomobilni oldi-sotdi bo'yicha shartnomasi imzolanganidan keyin 10 kundan kechiktirmasdan amalga oshirilishi kerak.

Avtomobil uchun hujjatlarni qachon olaman?

Avtomobilingiz uchun yangi hujjatlarni taqdim etilgan hujjatlar ro'yxati va avtomobilning o'zi tekshirilgandan so'ng, agar avtomobil o'g'irlangan yoki garovda bo'lmasa,

kuzovi va dvigatel raqamlari texnik passport bilan mos kelsa, Siz avtomobilning ro'yxatdan o'tganligini tasdiqlovchi, boshqa hujjatlar ham to'g'ri bo'lsa, hujjatni va yangi raqamlar belgilarini olasiz.

FOYDALI MA'LUMOTLAR

Migratsiya qonunchiligini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlik

Ish beruvchi yoki ish(xizmatlar) buyurtmachilari tomonidan chet el fuqarolarini mehnat faoliyatiga jalb etishlarida RF migratsiya qonunchiligiga rioya qilish bo'yicha majburiy talablar quyidagi jadvalda ko'rsatilgan bo'lib, unda chet el fuqarolarini mehnat faoliyatiga jalb etish bilan bog'liq ma'muriy huquqbuzarlik turlari, va bu qonunbuzarliklar yuz berganda qo'llanadigan sanksiyalar ko'rsatilgan.

Qoidabuzarliklar	Javobgarlikka tortiladigan shaxs	Javobgarlik choralari	Norma
Chet el fuqarosining Rossiyada bo'lish, yashash, harakatlanish, yashash joyini o'zgartirish, uning chegaralaridan chiqish bo'yicha hujjatlarni rasmiylashtirishda tartibni buzish, agar bu harakatlar jinoy jazo belgilariga ega bo'lmasa	Lavozimdagi shaxs	Jarima 40 mingdan 50 ming rublgacha	1-qism 18.9-modda, RF ma'muriy kodeksi 18.1-moddasiga eslatma
	Yuridik shaxs	Jarima 400 mingdan 500 ming rublgacha	
	Xususiy tadbirkor		

Qoidabuzarliklar	Javobgarlikka tortiladigan shaxs	Javobgarlik choralari	Norma
Taklif qilayotgan tomondan chet ellik fuqarolarning Rossiyada bo'lishi bilan bog'liq choralarni ta'minlash bo'yicha taklif qilingan chet ellik fuqarolar tomonidan Rossiyada bo'lish, (yashash) bo'yicha rejimga rioya qilinmasligi, jumladan, ular tomonidan amalga oshiralayotgan faoliyat maqsadi kirish yoki o'z vaqtida chiqib ketish (16.01.2019dan boshlab))	Fuqaro	Jarima 2 mingdan 4 ming rublgacha	2-qism 18.9-modda RF ma'muriy kodeksi 18.1 - moddasiga eslatma
	Lavozimdagi shaxs	Jarima 45 mingdan 50 ming rublgacha	
	Yuridik shaxs	Jarima 400 ningdan 500 ming rublgacha	
	Xususiy tadbirkor		
Migratsiya ro'yxatidan o'tish bilan bog'liq majburiyatlarni bajarmaslik, agar bu harakatlar jinoy jazo belgilariga ega bo'lmasa	Fuqaro	Jarima 2 mingdan 4 ming rublgacha	4-qism 18.9-modda, RF ma'muriy kodeksi 18.1-moddasiga eslatma
	Lavozimdagi shaxs	Jarima 40 mingdan 50 ming rublgacha	
	Yuridik shaxs	Jarima 400 mingdan 500 ming rublgacha	
	Xususiy tadbirkor		

<i>Qoidabuzarliklar</i>	<i>Javobgarlikka tortiladigan shaxs</i>	<i>Javobgarlik choralari</i>	<i>Norma</i>
Taklif qilingan chet ellik fuqaroning Rossiyada bo'lish davrida moddiy, tibbiy, uy-joy bilan ta'minlanishi bo'yicha choralarning qabul qilinmaganligi	Lavozimdagi shaxs	Jarima 40 mingdan 50 ming rublgacha	5-qism 18.9-modda, RF ma'muriy kodeksi 18.1-moddasiga eslatma
	Yuridik shaxs	Jarima 400 mingdan 500 ming rublgacha	
	Xususiy tadbirkor		
Rossiya Federatsiyasiga kirish uchun hujjatlarni rasmiylashtirishda chet elliklarning kelish maqsadi haqida yolg'on ma'lumot berish	Lavozimdagi shaxs	Jarima 45 mingdan 50 ming rublgacha	6-qism 18.9-modda, RF ma'muriy kodeksi 18.1-moddasiga eslatma
	Yuridik shaxs	Jarima 400 mingdan 500 ming rublgacha	
	Xususiy tadbirkor		

<i>Qoidabuzarliklar</i>	<i>Javobgarlikka tortiladigan shaxs</i>	<i>Javobgarlik choralari</i>	<i>Norma</i>
Rossiyada ishlash uchun ruxsatnoma yoki patentga ega bo'lmagan chet el fuqarolarini mehnat faoliyatiga jalb etish, agar bu hujjatlar federal qonunga ko'ra talab qilinsa, Yoki chet ellik fuqaroni patent, ishlash uchun ruxsatnomada ko'rsatilmagan kasb(mehnat faoliyati turiga ko'ra mutaxassislik,lavozim) bo'yicha mehnat faoliyatiga jalb etis, agar ularda shunday ma'lumotlar mavjud bo'lsa, yoki chet el fuqarosini Rossiyaning ishlash uchun ruxsatnomasi va patenti bo'lmagan hududlarda mehnat faoliyatiga jalb etilsa	Fuqaro	Jarima 2 mingdan 5 ming rublgacha	1-qism 18.15-modda, RF ma'muriy kodeksi 18.1-moddasiga eslatma
	Lavozimdagi shaxs	Jarima 25 mingdan 50 ming rublgacha	
	Yuridik shaxs	Jarima 250 mingdan 800 ming rublgacha yoki mehnat faoliyatini ma'muriy tarzda 14 kundan 90 kungacha to'xtatib qo'yish	
	Xususiy tadbirkor		

Qoidabuzarliklar	Javobgarlikka tortiladigan shaxs	Javobgarlik choralari	Norma
Agar chet ellik fuqarolarni ruxsatnomasiz mehnatga jalb qilish va chet ellik xodimlardan foydalanish, federal qonunga ko'ra shunday ruxsatnoma talab qilinsa	Fuqaro	Jarima 2 mingdan 5 ming rublgacha	2-qism 18.15-modda, RF ma'muriy kodeksi 18.1-moddasiga eslatma
	Lavozimdagi shaxs	Jarima 25 mingdan 50 ming rublgacha	
	Yuridik shaxs	Jarima 250 mingdan 800ming rublgacha yoki mehnat faoliyatini ma'muriy tarzda 14 kundan 90 kungacha to'xtatib qo'yish	
	Xususiy tadbirkor	Jarima 250 mingdan 800ming rublgacha yoki mehnat faoliyatini ma'muriy tarzda 14 kundan 90 kungacha to'xtatib qo'yish	

Qoidabuzarliklar	Javobgarlikka tortiladigan shaxs	Javobgarlik choralari	Norma
Ijro etuvchi hokimiyat federal organining hududiy organini bildirishnomani yoki bildirishnoma shakllarini taqdim etmaslik, mehnat shartnomasining tuzilganligi yoki bekor qilinganligi yoki fuqarolik huquqiy shartnomasi bo'yicha mehnat shartnomasi yoki yoki ish bajarish(xizmat ko'rsatish) bo'yicha chet el fuqarosi bilan uch kundan shartnoma tuzish, shartnoma tuzilgan kundan uch kundan oshmaydigan ish kuni ichida shartnomani bekor qilish, to'xtatish yoki bekor qilish, agar federal qonunga ko'ra shunday bildirishnoma zarur bo'lsa	Fuqaro	Jarima 2 mingdan 5 ming rublgacha	3-qism 18.15-modda, RF ma'muriy kodeksi 18.1-moddasiga eslatma
	Lavozimdagi shaxs	Jarima 35 mingdan 50 ming rublgacha	
	Yuridik shaxs	Jarima 400 mingdan do 800 ming rublgacha yoki mehnat faoliyatini ma'muriy tarzda 14 kundan 90 kungacha to'xtatib qo'yish	
	Xususiy tadbirkor	Jarima 400 mingdan do 800 ming rublgacha yoki mehnat faoliyatini ma'muriy tarzda 14 kundan 90 kungacha to'xtatib qo'yish	

<i>Qoidabuzarliklar</i>	<i>Javobgarlikka tortiladigan shaxs</i>	<i>Javobgarlik choralari</i>	<i>Norma</i>
RF ma'muriy kodeksi 1-3 qismlari 18.15 bo'yicha Moskva, Sankt-Peterburg shaharlarida, Mockva, Leningrad oblastlarida yo'l qoyilgan qonunbuzarliklar	Fuqaro	Jarima 5 mingdan 7 ming rublgacha	4 –qism 18.15-mod-da, RF ma'muriy kodeksi 18.1-mod-dasiga eslatma
	Lavozimdagi shaxs	Jarima 35 mingdan 70 rublgacha	
	Yuridik shaxs	Jarima 400 mingdan 1 mln. rublgacha yoki mehnat faoliyatini ma'muriy tarzda 14 kundan 90 kungacha to'xtatib qo'yish	
	Xususiy tadbirkor		

<i>Qoidabuzarliklar</i>	<i>Javobgarlikka tortiladigan shaxs</i>	<i>Javobgarlik choralari</i>	<i>Norma</i>
Migratsiya bo'yicha davlat nazorati yoki uning vakolatli hududiy organlari tomonidan (ro'yxatga muvofiq, belgilangan federal organ tomonidan) davlat nazoratini olib borishda ish haqini to'lash bo'yicha majburiyatlarning bajarilishi to'g'risida chet ellik yuqori malakali mutaxassisga oylik maoshining (rag'batlantirish) to'lanishi haqida bildirishnomalarni taqdim etmaslik yoki tartibning buzilishi va (yoki) jiroiya hokimiyatining federal organiga bildirishnoma sahklarining buzilishi, va shunday bildirishnomalar yoki ma'lumotlarni taqdim etish federal qonunda ko'rsatilgan bo'lsa	Lavozimdagi shaxs	Jarima 35 mingdan 70 ming rublgacha	5-qism 18.15-mod-da, RF ma'muriy kodeksi 18.1-mod-dasiga eslatma
	Yuridik shaxs	Jarima 400 mingdan 1 mln. rublgacha	
	Xususiy tadbirkor		

Qoidabuzarliklar	Javobgarlikka tortiladigan shaxs	Javobgarlik choralari	Norma
Savdo ob'ektlarida (shu jumladan, savdo majmualarida) chet el fuqarolarini jalb qilish qoidalarini buzish quyidagi holatlarda qayd etiladi: - IP (xususiy tadbirkorlik) yoki tashkilot tomonidan (uning filiali, vakolatxonasi yoki ko'rsatilgan tashkilotning lavozimdagi shaxsi tomonidan savdo ob'ektining hududida (shu jumladan, savdo majmuasi), ishlab chiqarish, omborxonasi, savdo, xizmat ko'rsatish, yordamchi yoki boshqa binolarda chet ellik fuqarolarning noqonuniy ravishda savdo ob'ektida joylarni ishlash uchun ularga berish, buni noqonuniy ravishda amalga oshirish yoki uni amalga oshirish uchun boshqa shaklda qabul qilish uchun ruxsatnoma berish yoki buni boshqa ko'rinishda amalga oshirish	Lavozimdagi shaxs	Jarima 45 тыс. до 50 тыс. руб.	1-qism, 18.16-modda RF ma'muriy kodeksi
	Xususiy tadbirkor	Jarima 350 mingdan 800 ming rublgacha yoki mehnat faoliyatini ma'muriy tarzda 14 kundan 90 kungacha to'xtatib qo'yish	
	Yuridik shaxs	Jarima 450 mingdan 800 ming rublgacha yoki mehnat faoliyatini ma'muriy tarzda 14 kundan 90 kungacha to'xtatib qo'yish	

Qoidabuzarliklar	Javobgarlikka tortiladigan shaxs	Javobgarlik choralari	Norma
Savdo ob'ektini boshqaruvchi yakka tartibdagi tadbirkor, tashkilot (uning filiali, vakili) ish bilan ta'minlash (savdo kompleksi, shu jumladan), yoki rasmiy (savdo majmuasi, shu jumladan,) savdo ob'ekt hududida joylashgan tashkilot (uning filiali, vakili), ishlab chiqarish, ombor, savdo, xizmat, yordamchi yoki boshqa binolar boshqa tashkilot yoki yakka tartibdagi tadbirkor, yoki chet ellik fuqarolarni mehnat faoliyatiga jalb etish va ulardan foydalanishga ruxsat berish, lekin ularning mehnatidan noqonuniy foydalanish yoki mehnat faoliyatiga jalb qilish agar bunday ruxsatnoma yoki patent talab etilsa, ish yoki patentga ega bo'lmagan chet el fuqarolaridan RF federal qonunga muvofiq shunday hujjatlar talab qilinsa	Lavozimdagi shaxs	Jarima 45 mingdan 50 ming rublgacha	2-qism 18.16-modda RF ma'muriy kodeksi
	Xususiy tadbirkor	Jarima 350 mingdan 800 ming rublgacha yoki mehnat faoliyatini ma'muriy tarzda 14 kundan 90 kungacha to'xtatib qo'yish	
	Yuridik shaxs	Jarima 450 mingdan 800 ming rublgacha yoki mehnat faoliyatini ma'muriy tarzda 14 kundan 90 kungacha to'xtatib qo'yish	

<i>Qoidabuzarliklar</i>	<i>Javobgarlikka tortiladigan shaxs</i>	<i>Javobgarlik choralari</i>	<i>Norma</i>
Rossiya Federatsiyasi ma'muriy kodeksning 1,2-qismi 18.16-moddasida ko'rsatilgan Moskva, Sankt-Peterburg, Moskva yoki Leningrad oblastida sodir etilgan	Lavozimdagi shaxs	Jarima 45 mingdan 70 ming	3-qism, 18.16-moddada, RF ma'muriy kodeksi 18.1-moddasiga eslatma
	Yuridik shaxs	Jarima 450 mingdan 1 mln. rublgacha yoki mehnat faoliyatini ma'muriy tarzda 14 kundan 90 kungacha to'xtatib qo'yish	
	Xususiy tadbirkor		
Ish beruvchi yoki buyurtmachi tomonidan muayyan faoliyat turlarini amalga oshirish bo'yicha chet el fuqarolarini muayyan faoliyat turlariga jajib etishda federal qonun tomonidan belgilangan cheklolarga rioya qilmaslik	Fuqaro	Jarima 2 mingdan 4 ming rublgacha	1 -qism 18.17-moddada, RF ma'muriy kodeksi 18.1-moddasiga eslatma
	Lavozimdagi shaxs	Jarima 45 mingdan 50 ming rublgacha	
	Yuridik shaxs	Jarima 800 mingdan 1 mln. rublgacha yoki mehnat faoliyatini ma'muriy tarzda 14 kundan 90 kungacha to'xtatib qo'yish	
	Xususiy tadbirkor		

<i>Qoidabuzarliklar</i>	<i>Javobgarlikka tortiladigan shaxs</i>	<i>Javobgarlik choralari</i>	<i>Norma</i>
Migratsiya sohasida davlat nazoratini (tekshiruv) amalga oshiruvchi ijroiya hokimiyati federal organing hududiy organini xabardor qilmaslik yoki tartibning buzilishi, chet ellik fuqaroga akademik ta'fil berilishi, chet el fuqarosining ta'limning tugashi yoki to'xtatilishi, yoki chet ellik fuqaroning o'zicha ruxsatsiz ta'lim muassasidan ketishi haqida bildirmaslik, agar bunday xabar berish federal qonunga muvofiq talab qilinadigan bo'lsa	Lavozimdagi shaxs	Jarima 35 mingdan 50 ming rublgacha	1 -qism 18.19-, modda, RF ma'muriy kodeksi 18/1-moddasiga eslatma
	Yuridik shaxs	Jarima 500 mingdan 800 ming rublgacha	
	Xususiy tadbirkor		

<i>Qoidabuzarliklar</i>	<i>Javobgarlikka tortiladigan shaxs</i>	<i>Javobgarlik choralari</i>	<i>Norma</i>
Chet elliklarning ta'lim muassasasiga kelishi to'g'risida ta'lim sohasida RF sub'ektining ijroiya hokimiyat organini xabardor qilmaslik yoki ta'limni tashkil qilishda taribning buzilishi haqida bildirmaslik, chet elliklarga akademik ta'til berilishi, ta'limning tugashi yoki to'xtatilishi, chet ellikning o'zicha ta'lim muassasidan ketganligini bildirmaslik, agar bunday xabar berish federal qonunga muvofiq talab qilinadigan bo'lsa	Lavozimdagi shaxs	Jarima 35 mingdan 50 ming rublgacha	2 -qism 18.19-modda, RF ma'muriy kodeksi 18.1-moddasiga eslatma
	Yuridik shaxs	Jarima 500 mingdan 800 ming rublgacha	
	Xususiy tadbirkor		
Ta'lim muassasasi tomonidan Rossiya FSB hududiy organiga o'zicha ruxsatsiz ta'lim muassasidan ketishi haqida xabar bermaslik, agar federal qonunga ko'ra bunday xabarni berish talab qilinsa	Lavozimdagi shaxs	Jarima 35 mingdan 50 ming rublgacha	3-qism 18.19-modda, RF ma'muriy kodeksi 18.1-moddasiga eslatma
	Yuridik shaxs	Jarima 500 mingdan 800 ming rublgacha	
	Xususiy tadbirkor		

<i>Qoidabuzarliklar</i>	<i>Javobgarlikka tortiladigan shaxs</i>	<i>Javobgarlik choralari</i>	<i>Norma</i>
Agar bu harakatlar jinoiy javobgarlikka tortiladigan harakat belgilarini o'z ichiga olmasa, migrasiya hisobini olib borishda chet ellik fuqaro haqida yolg'on ma'lumotlarni taqdim etish	Fuqaro	Jarima 2 mingdan 5ming rublgacha	2-qism, 19.27-modda, RF ma'muriy kodeksi 2.4-moddasiga eslatma
	Lavozimdagi shaxs	Jarima 35 mingdan 50 ming rublgacha	
	Xususiy tadbirkor	Jarima 350 mingdan 800 ming	
	Yuridik shaxs		

RF IIV migratsiya masalalari bo'yicha Bosh Boshqarmasi:

Sayt: guvm.mvd.rf

Telefon: +7 495 667-02-99

Davlat mehnat inspeksiyasi:

Sayt: rostrud.gov.ru/inspections

Tel: 8 800 707 88 41

Federal soliq xizmati:

Sayt: nalog.ru

Telefon: 8 800 222 22 22

Moskva ta'lim sifatini markazi:

Sayt: mcko.ru

Telefon: +7 495 952-09-05

Moskva millatlar uyi:

Sayt: mdn.ru

Telefon: +7 495 625-90-18

Rossiya IIV o'z xavfsizligi Bosh Boshqarmasi:

Moskva shahri, Sadovaya Spasskaya ko'chasi, 1/2 uy

Telefon: +7 495 667-07-3

RF Bosh prokuraturasi:

Sayt: genproc.gov.ru

Moskva shahri, Bolshaya Dmitrovka, 15a

Telefon: +7 495 987-56-56

Federal Xavfsizlik Xizmati:

Moskva shahri, Bolshaya Lubyanka ko'chasi 1-uy

Sayt: fsb.ru

RF tergov qo'mitasi:

Sayt: sledcom.ru

Moskva shahri, 1-Frunzenskaya ko'chasi 3-a uy,

Ishonch telefoni: 8 800 100 12 60

Qabulxona telefoni: 8 (495) 986-77-10

Agar siz sodir etilgan yoki tayyorlanayotgan terroristik hujumlar haqida ma'lumotga ega bo'lsangiz, iltimos, Rossiya Federal

Xavfsizlik Xizmatining quyidagi telefonlariga murojaat eting:

8 495 224 22 22

8 800 224 22 22

Moskva shahri asosiy temir yo'l vokzallari ro'yxati

BELORUS VOKZALI

Manzil: Tverskaya zastava maydoni 7-uy

(«Belorusskaya metrosi»)

Sayt: belorus.sky.dzvr.ru

Telefon: 8 800 775 00 00, +7 499 623-85-57

KIYEV VOKZALI

Manzil: Kiyev vokzali maydoni, 1-uy

(«Kiyevsakaya»metrosi)

Sayt: kievsky.dzvr.ru

Telefonlar: 8 800 775 00 00, +7 499 623-63-39,

+7 499 623-65-62, +7 499 623-62-06

LENINGRAD VOKZALI

Manzil: Komsomolskaya ploshad, 3-uy

(«Komsomolskaya»metrosi)

Sayt: leningradsky.dzvr.ru

Telefonlar: 8 800 775 00 00, +7 495 262-91-43,

+7 495 262-91-43, +7 495 262-98-76

YAROSLAVL VOKZALI

Manzil: Komsomolskaya ploshad, 5-uy,
(«Komsomolskaya»metrosi)
Sayt: yaroslavsky.dzvr.ru
Telefonlar: 8 800 775 00 00, +7 495 921-59-14,
+7 495 266-05-23

PAVELETSK VOKZALI

Manzil:Paveletskaya ploshad, 1a-uy
(Paveletskaya metrosi)
Sayt: paveletsky.dzvr.ru
Telefonlar: 8 800 775 00 00, +7 499 235-12-14, +7 499 235-91-05

QOZON VOKZALI

Manzil: Komsomolskaya ploshad, 2-uy
(«Komsomolskaya»metrosi)
Sayt: kazansky.dzvr.ru
Telefonlar: 8 800 775 00 00, +7 499 266-31-81,
+7 499 266-23-00, +7 499 264-65-56

KURSK VOKZALI

Manzil: Zemlyanoy val, 29-uy («Kurskaya»metrosi)
Sayt: kursky.dzvr.ru
Telefonlar: 8 800 775 00 00, +7 499 266-54-70, +7 499 266-52-43

Rossiya temir yo'llari dolzarb liniyasi:

8 800 775 00 00

Shahar atrofi elektropoyezdlari marshrutlarini rzd.ru saytida
bilish mukin

Moskva shahri avtovokzallari va avtostansiyalarining dolzarb liniyasi

+7 (499) 940-08-43

Moskva shahri aeroportlarining telefonlari

VNUKOVO AEROPORTI

Telefon: +7 (495) 937-55-55
Manzil: Moskva shahri, 1-Reysovaya ko'chasi, 12-uy
Sayt: vnukovo.ru

DOMODEDOVO AEROPORTI

Telefon:+7 (495) 933-66-66
Manzil: Moskva oblasti., Domodedovo shaharchasi, a/p Domodedovo
Sayt: dme.ru

SHEREMETYEVO AEROPORTI

Telefonlar: +7 (495) 578-65-65, +7 (925) 100-65-65
Manzil: Moskva oblasti., Ximki shaharchasi, a/p Sheryemetovo
Sayt: svo.aero

MDH respublikalarining Rossiya Federatsiyasidagi elchixonalari va konsulliklari

RFdagi Ozarbayjon Respublikasi elchixonasi:

Elchixona manzili: Moskva, Leontyevskiy tor ko'chasi, 16-uy
Telefonlar: +7 495 629-16-49, +7 495 629-43-32
E-mail: moscow@mission.mfa.gov.az,
embassy@azembassy.msk.ru, consulate@azembassy.msk.ru
Sayt: moscow.mfa.gov.az

RFdagi Armaniston Respublikasi elchixonasi:

Elchixona manzili: Moskva, Armyanskiy tor ko'chasi, 2-uy
Telefonlar: +7 495 624-12-69, +7 495 624-32-43
E-mail: incom@armem.ru
Sayt: russia.mfa.am/ru, armconsul.ru

RFdagi Belarus Respublikasi elchixonasi:

Elchixonona manzili: Moskva, Maroseyka ko'chasi, 17/6-uy, 4-qurilish
Telefonlar: +7 495 624-70-95, +7 495 777-66-44
E-mail: consular@embassybel.ru, mail@embassybel.ru
Sayt: embassybel.ru

RFdagi Qozog'iston Respublikasi elchixonasi:

Elchixonona manzili: Moskva, Chistoprudniy bulvari, 3a - uy
Telefonlar: +7 495 627-18-09, +7 495 627-18-12,
+7 495 627-18-11, +7 495 627-17-06
E-mail: moscow@mfa.kz, consul@kazembassy.ru,
consul.moscow@mfa.kz
Sayt: kazembassy.ru

RFdagi Qirg'iziston Respublikasi elchixonasi:

Elchixonona manzili: Moskva, Bolshaya Ordinka ko'chasi, 62-uy, 2-qurilish
Telefonlar: +7 499 237-48-82, +7 495 237-46-01,
+7 499 238-33-04, +7 (499) 230-11-17
E-mail: info@kyrgyzembassy.ru , kgembassy.ru@mfa.gov.kg
Sayt: mfa.gov.kg/ru/dm

RFdagi Moldova Respublikasi elchixonasi:

Elchixonona manzili: Moskva, Kuznetskiy Most ko'chasi, 18-uy
Telefonlar: +7 495 790-75-46, +7 495 624-53-53
E-mail: moscova@mfa.gov.md , consul.moscova@mfa.md
Sayt: rusia.mfa.md

RFdagi Tojikiston Respublikasi elchixonasi:

Elchixonona manzili: Moskva, Granatniy tor ko'chasi, 13-uy,
Konsullik manzili: Moskva, Skatertniy tor ko'chasi, 19-uy
Telefonlar: +7 495 690-38-46, +7 495 690-41-86,
+7 495 690-57-36, +7 495 690-02-70
E-mail: consulate@tajembassy.ru, tajembmoscow@mfa.tj
Sayt: tajembassy.ru

RFdagi Turkmaniston Respublikasi elchixonasi:

Elchixonona manzili: Moskva, Filippovskiy tor ko'chasi, 22-uy
Konsullik manzili: Moskva, Maliy Afanasyevskiy tor ko'chasi,
14/34-uy, 1-qurilish.
Telefonlar: +7 495 690-32-02, +7 495 690-32-58,
+7 495 690-32-02, +7 495 690-32-58
E-mail: consul@turkmenembassy.ru , office@turkmenembassy.ru
Sayt: russia.tmembassy.gov.tm/ru/contacts

RFdagi O'zbekiston Respublikasi elchixonasi:

Elchixonona manzili: Moskva, Pogorelskiy tor ko'chasi, 12-uy, 1-bino
Konsullik manzili: Moskva, 2- Kazachiy tor ko'chasi, 2-uy
Telefonlar: +7 499 230-00-76, +7 499 238-36-20
E-mail: uzkorus@mail.ru, info@uzembassy.ru
Sayt: uzembassy.ru

RFdagi Ukraina elchixonasi:

Elchixonona manzili: Moskva, Leontyevskiy tor ko'chasi 18-uy
Telefonlar: +7 495 629-97-42, +7 495 629-19-88,
+7 495 629-72-97, +7 495 629-35-42
E-mail: gc_ru@mfa.gov.ua, gc_ru@list.ru, emb_ru@mfa.gov.ua
Sayt: russia.mfa.gov.ua/ru

911 — insonning hayoti va sog'ligiga yoki sayyohlarning mulklariga xavf soluvchi yoki har qanday vaziyatlar uchun

+7 (495) 937-99-11 — Moskva qutqaruv xizmati –favqulodda holatlat yuz berganida

Istalgan mobil aloqa operatori sim-kartasidan tezkor xizmatlarga qo'ng'iroq qilish uchun raqamlarni eslab qolish zarur:

101 — Yong'indan asrash –yong'in yuz berganda yoki o't ketish belgilari bo'lganda

102 — Politsiya –huquqbuzarlik holatlarida

103 — Tez yordam –shoshilinch tibbiy yordam olish zarur bo'lganda

104 — Gaz xizmati –agar Siz gaz hidini sezgan bo'lsangiz

109 — Ma'lumotlar –axborotlar olish yoki ularni aniqlash uchun

112 — Mobil telefonidan qutqaruv xizmatlarini chaqirish (dispetcher rus va ingliz tillarida gapiradi)

www.росмигрант.рф
www.rosmigrant.ru
Aloqa uchun telefonlar
8 800 550 32 03



8 926 121 39 56

WhatsAppga, Росмигрант chatiga o'tish:



*Islom madaniyati, ilm-fan va ta'limni qo'llab-quvvatlash
Jam'armasi tomonidan qo'llab-quvvatlanadi*